

**O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASOVCHI VA SHAKL
YASOVCHI MORFEMALARNING LINGVISTIK TAHLILI**

Abdujabborova Ozoda Abdunazar qizi

Guliston davlat universiteti

Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida morfemaning til birligi nuqtayi nazaridan uning xususiyatlari, morfemaga tilshunoslarning munosabat masalasi, o‘zbek tilida morfemaning o‘ziga xos tabiati, vazifasi, xususiyatlari kabilar haqida ayrim qarashlar va fikrlar tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *morfema, so‘z, lisoniy va nutqiy hodisa, so‘z yasalishi, sistema, morfem sath, affiks.*

**LINGUISTIC ANALYSIS OF WORD-FORMING AND
SHAPE-FORMING MORPHEMS IN THE UZBEKISTAN
LANGUAGE**

Abdujabborova Ozoda Abdunazar qizi

Gulistan State University

2nd year student, Faculty of Philology

Annotation. *This article analyzes some views and opinions on the characteristics of the morpheme in Uzbek linguistics from the point of view of linguistic unity, the issue of linguists' attitude to the morpheme, the specific nature, function, and characteristics of the morpheme in the Uzbek language, etc.*



Keywords: *morpheme, word, linguistic and speech phenomenon, word formation, system, morpheme level, affix.*

**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ
СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ И ФОРМООБРАЗОВАЮЩИХ
МОРФЕМ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ**

Абдуджабборовна Озода Абдуназар кизи

Гулистанский государственный университет

Студентка 2 курса филологического факультета

Аннотация. *статье анализируются некоторые взгляды и мнения по поводу особенностей морфемы в узбекском языкознании с точки зрения единства языка, проблема отношения лингвистов к морфеме, специфика, функции и особенности морфемы в узбекском языке и т.д.*

Ключевые слова: *морфема, слово, языковое и речевое явление, словообразование, система, морфемный уровень, аффикс*

Ma'lumki, tilshunoslikda morfema (yunoncha: "morphe" "shakl" degan ma'noni bildirib, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan eng kichik til birligidir. Morfema terminini birinchi bo'lib tilshunoslikka tilshuns olim Bouden de Kurtene tomonidan kiritildi. U tilshunoslik tarixida ilk bor morfem qurilish elementlariga ilmiy ta'rif beridi va unga asos soldi. Boduen de Kurtene morfemaning quyidagi xarakterli belgilarini ko'rsatadi:

a) psixik belgi, tasavvur va hodisalar ekanligi;

b) ma'no tashish;

s) soʻz tarkibi elementlari sanalishi;

d) oʻzak va affikslar uchun umumlashtiruvchi tushuncha atama boʻlishi;

e) eng kichik maʼnoli birlik statusiga ega ekanligi.

Morfema haqida mulohaza yuritganimizda morfemalar (oʻzak va affikslar) ham muayyan maʼnoni, mazmunni ifodalash shakli (formasi) hisoblanadi. Bunda oʻzak morfema leksik maʼnoning, affiks morfema esa grammatik maʼnoning formasi, ifodalovchisi boʻlib keladi. Demak, morfemalar ham shakl va mazmun munosabatini oʻzida tashiydi [9.12]. Yevropa olimlari ham dastlab hind tilshunoslarining ishlari bilan yaqindan tanishib, soʻzlardan oʻzak, soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchi morfemalarni ajratishga “kirishganlar”. Qadimgi hind tilshunosligining yana asosiy, bosh masalalaridan biri soʻz bilan maʼno orasidagi, predmet bilan uning nomi orasidagi munosabat masalasi ham edi. Oʻzbek tilida qoʻshimcha soʻzga qoʻshilib, soʻzga yangi yoki qoʻshimcha maʼno berishi taʼkidlanadi. Misol uchun Aytmaganingga xafaman – Aytmaganing uchun xafaman bunda sabab maʼnosida –ga formanti orqali, ikkinchisida uchun koʻmakchisi yordamida ifodalangan, lekin -ga affiks va shu holida hech qanday maʼnoga ega emas boʻlib, u soʻzning morfema strukturasi kiradiki, shuning uchun ham soʻzga doim qoʻshib yoziladi.

Oʻzbek tilida morfema til birligi hisoblanadi. Bu haqida H. Neʼmatov va R. Rasulovlarning “Oʻzbek tili sistem leksikologiya asoslari” (1995) kitobida til birliklari sifatida asosan quyidagilarni sanab oʻtilgan:

1) fonema;

- 2) morfema;
- 3) leksema;
- 4) qolip (konstruksiya, qurilma, model).

O‘zbek tilida morfemalarga munosabat bildirgan tilshunos olimlar: Yormat Tojiyev, A.Berdaliyev, I.Ermatorov kabi olimlar morfemalarni quyidagicha ajratadilar:

1. O‘zak morfema;
2. Affiks morfema.

O‘zak morfema so‘z tarkibining asosiy qismi hisoblanadi. O‘zak morfemada so‘zning lug‘aviy ma‘nosi ya‘ni borliqdagi ma‘nosi belgilanadi. O‘zak morfema shakl jihatdan so‘zga tengdir. Darslikdan, daraxtlarning, suvchilardan, kitobxonlarga kabi morfemalarda dars, daraxt, suv, kitob morfemalar o‘zak morfema hisoblanadi. Suvchilardan so‘zida suv o‘zak morfema, -chi, -lik so‘z yasovchi affiks, -dan shakl yasovchi affiks bo‘lib, bu so‘z to‘rtta morfemadan tashkil topgan. Affiks morfema o‘zak morfemaga qo‘shiluvchi morfema. Affikslar o‘zakdan oldin yoki keyin kelib, o‘zak ma‘nosiga qo‘shimcha ma‘no yoki yangi ma‘no hosil qilish uchun xizmat qiladi. Ilmsizlikdan so‘zida ilm o‘zak morfema, -siz, -lik so‘z yasovchi affikslar, -dan shakl yasovchi morfemadir. Bu so‘z to‘rtta morfemadan tashkil topgan. So‘zda uchta affiks morfema mavjud.

Ixtiyor Ermatov o‘zining “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (2022) darsligida quyidagilarni yozadi, ya‘ni tilning lug‘aviy tizimida bo‘lganidek, affikslar tizimi ikki guruhga ajraladi: 1.O‘z qatlam affikslari. 2.O‘zlashgan qatlam affikslari.

O‘z qatlam affikslari.

Shakl yasovchi affikslarning barchasi egalik, kelishik, son, shaxs-son, zamon shakllari hamda ayrim so‘z yasovchi qo‘shimchalar o‘z qatlam affikslariga mansub hisoblanadi. Shakl yasovchi affiks morfemalar asosga qo‘shilib so‘zning ma‘nosiga qo‘shimcha ma‘no yuklaydi. Shakl yasovchi morfemalar tarkibiga egalik, kelishik, son, shaxs-son, zamon, mayl, nisbat, kichraytirish-erakalash, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi kabi affikslar shakl yasovchi morfemalar sirasiga kiradi. O‘zak morfemaga shakl yasovchi affiks morfema qo‘shilganda o‘zak ma‘nosiga qo‘shimcha ma‘no yuklanadi. Masalan, Egalik qo‘shimchalarining o‘zak morfemaga qo‘shilish tartibi: -im, -ing, -i: uzugim, uzuging, uzugi so‘zlarida o‘zak morfemaga “-im” egalik affiks morfema qo‘shilmasidan oldin “uzuk” so‘zi mavhum bir uzuk sifatida namoyon bo‘lgan, ammo egalik qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida uzukning ma‘lum bir shaxsga tegishli ekanligini bildirgan. Egalik affiks morfema qo‘shilishi o‘zakning ma‘nosiga ta‘sir ko‘rsatmagan holda uning ma‘nosiga qo‘shimcha ma‘no yuklayapti, xolos.

O‘zlashgan qatlam morfemalari.

Masalan, Tojik tilidan o‘zlashtirilgan so‘z yasovchi morfemalar o‘zbek tilida leksema hosil qilishda, yasashda faol hisoblanadi, jumladan: odamsimon, arizaboz, etikdo‘z, oshxona, oshpaz, xudbin, kamnamo, g‘amxo‘r, sergap, beburd, badavlat, barvaqt, beodob, noto‘g‘ri, hamnafas kabilarni keltirish mumkin.

O‘zlashgan qatlam morfemalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) ot yasovchi affikslar
- 2) sifat yasovchi affikslar
- 3) ravish yasovchi affikslar

Ot yasovchi affikslar soʻz yasovchi affikslar sirasiga kiradi. Soʻzning maʼnosida yangi maʼno hosil qiladi. Ot yasovchi affikslar quyidagilarga boʻlinadi:

- a)shaxs oti yasovchi affikslar;
- b)narsa-predmet oti yasovchi affikslar;
- c)joy nomi yasovchi affikslar.

Shaxs oti yasovchi affikslar yurtdoshlar otlarga qoʻshilib shaxs oti hosil qiladi. Masalan, -gar: zargar, -furusht: sutfurusht, -soz: soatsoz, -dor: muhrdor, -doʻz: etikdoʻz. Demak, zar, sut, soat, muhr, etik kabi soʻzlariga shaxs oti yasovchi affikslar qoʻshilmasdan oldin ular narsa-predmetni bildiruvchi otlar edi. Affikslar qoʻshilishi natijasida shaxs oti yasaldi.

Narsa-predmet oti yasovchi affikslar mustaqil soʻzlarga qoʻshilib asosga yangi maʼno hosil qiladi. Masalan, -don: qalamdon, -gi: supurgi, -un: tugun, -ma: tugma, -q: taroq, -noma: taklifnoma, -um: unum singari soʻzlariga narsa-predmet affiksi qoʻshilishi natijasida narsa-predmet oti hosil boʻlyapti.

Oʻrin-joy oti yasovchi affikslar: -zor, -loq, -iston, -goh, -xona,-obod: gulzor, toshloq, Tojikiston, oʻyingoh, choyxona, Yangiobod oʻrin-joy yasovchi affikslari mustaqil soʻzlarga qoʻshilib oʻrin-joy otlari yasaydi.

Sifat yasovchi affikslar: -li, -ser, -ba, -iy, -siz, -mand shu kabi affikslar asos morfemaga qoʻshilib sifat hosil qiladi. Masalan, serunum, badavlat, gulsiz, doimiy, davlatmand kabi.

Ravish yasovchi affikslar: -ona, -larcha, -cha, -chasiga, -lab, -an kabi affiks morfemalar oʻzak morfemaga qoʻshilib ravish hosil qiladi. Masalan, qahramonona, mardlarcha, oʻzicha, erkakchasiga, yillab, vijdonan kabi.

Soʻz yasovchi affikslar oʻz qatlamga mansubdir. Soʻz yasovchi affiks morfemalar soʻzning maʼnosini tubdan oʻzgartiradi va yangi maʼno hosil qiladi. Masalan, -chi: gulchi, suvchi, qayiqchi, -lik: goʻzallik, ozodalik, -qoq: botqoq, -kak: erkak, -k, -ik: tilak, kechik shu kabi soʻzlarning asosiga affiks morfema qoʻshilishi natijasida yangi maʼnoli soʻz hosil boʻlyapti. Qayiq soʻzi ot turkumiga oid turdosh ot hisoblanadi. Qayiq soʻzi narsa-predmet nomini bildiradi, ammo unga “-chi” qoʻshimchasi qoʻshilishi natijasida u yaʼni qayiq soʻzi shakllantiryapti.”-chi” qoʻshimchasi qoʻshilishi natijasida qayiqchlarni boshqaruvchi “qayiqchi” morfemasi hosil boʻlyapti.

Shuningdek, bu borada, yaʼni morfema va leksema talqiniga doir ilmiy izlanishlar olib borgan akademik A. Hojiyev oʻz munosabatini bildirib oʻtadi. Morfema haqida ikki xil fakt mavjud ekanligini aytadi, yaʼni 1) soʻzning maʼnoli qismlarini morfema deb qarash va shunday qismlarning mohiyatini oʻrganish; 2) morfemani til birligi, til qurilishining asosiy birliklaridan biri hisoblash va shunday birlik sifatida uning, u bilan bogʻliq hodisalarning mohiyatini tadqiq etish[9.12]. Olimning taʼkidlashicha, morfemani bunaqa ikki xil tushinish, uning tahlilida ham turli xatoloklarni, notoʻgʻri xulosalarni keltirib chiqaradi. Olim Morfema bilan SJIF:5.219



bog‘liq chalkashlikning kelib chiqishi ayrim tilshunoslikka, jumladan, rus tilshunosligiga oid adabiyotlarda morfema yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar o‘zbek tilshunosligiga ko‘chirilyapti hamda “morfema” deb atalayotgan til birligi o‘zbek tili materiyalidan kelib chiqib belgilanmaganligini [9.12] ketirib o‘tadi. Akademik A. Hojiyev morfema masalasi bo‘yicha “asos morfema” va “affiks morfema” kabi terminlar noto‘g‘ri ekanligini aytib, shu shu terminlarni qo‘llaganlarni ham tanqid qilib o‘tadi va ushbu misol orqali o‘z munosabatini keltiradi, masalan, ish - so‘z, leksema, -chi, -par, -imiz, -ga – morfemalar hisoblanadi. Ya’ni bu morfemalar esa faqat ish so‘zining morfem tarkibini hosil qiluvchi, faqat ish so‘zi bilan qo‘llanuvchi birliklar emas, balki ular tilda mavjud bo‘lgan so‘zlardan yasama so‘z va so‘z shakllarini hosil qiluvchi tayyor birliklar – morfemalardir.

O‘zbek tilshunosligida morfemaning lingvistik tahlili yuzasidan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borildi. Morfemalarning kelib chiqishi boyish manbalari, morfemalar miqdori aniqlandi, ular tizim asosida ko‘rsatib berildi. Bu borada I.Ermatov, U.Qo‘ziyev, R.Sayfullayeva, A.Uralov, B.Mengliyev, A.G‘ulomov, E.Begmatov, G‘.Abdurahmonov, Y.Tojiyev singari tilshunoslarning mehnatlari juda kattadir.

Adabiyotlar

1. Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент. «Фан». 1981. 8-бет
2. R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik. –T. :“Fan va texnologiya”. 2007. 192-bet



3. Mengliyev. Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar. Filol. fan. dok. ...diss. avtoref. –Toshkent. 2002. 16-bet
4. A.Hojiyev., O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi, so'z yasallishining nazariy masalalari. –Toshkent. :”Fan”. 2010. 24-bet
5. A. Hojiyev. O'zbek tili so'z yasallishi tizimi. –Toshkent. :”O‘qituvchi”. 2007. 25-bet
6. Doniyorovich, O. R. A. (2022). TOG ‘AY MUROD ASARLARIDA EVFEMIZMLAR. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION, 1(4), 38-42.
7. O'razov, A. (2023). TILSHUNOSLIK VA UNING SATHLARI XUSUSIDA.
8. Doniyorovich, O. R. A., & Shavkatovna, A. S. (2024). O ‘ZBEK TILIDA LEKSEMA TALQINI. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(18), 144-146.
9. Абдуҳакимович, М. Қ., Мамарахимов, С. М., & Ўразов, А. Д. (2024). ЎТМИШДАЁҚ УНУТИЛГАН АРХАИК СЎЗЛАР “ЎЛИК СЎЗЛАР” ДИР. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(3), 74-78.